

TARIXIY ROMANLARDA BADIY KELASI ZAMON IFODASI

To‘rayeva Bahor Bahriddinovna,

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
professori v.b., filologiya fanlari doktori
turayeva.bahor@gmail.com*

Annotatsiya. *Badiiy zamonlar dialektikasida badiiy kelasi zamon o‘zining nisbatan mavhum, qisman real tarixiy, ko‘proq esa ramziy-falsafiy umumbashorat mundarijasi, shaklan va mazmunan o‘ziga xos xilma-xilligi bilan tarkiban murakkabligicha alohida ajralib turadi. Badiiy kelasi zamonning epik xususiyati, odatda, umumsujet zamonidan tashqari hodisa bo‘lib, tarixiy romanlar zamonlari poetikasida, asosan, yechim zamoni, aksariyat esa Xotima yoki So‘ngso‘z shakllaridagi muallif zamoni maqomlarida turli uslublaru usullarda ijodiy namoyon bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy zamon poetikasi, kelasi zamon, mavhum badiiy kelasi zamon, ruhiy badiiy kelasi zamon, qorishiq zamonli badiiy kelasi zamon, aniq kelajakli yoki kelajakdan tashqari tarixiy-epik kelasi zamon, ramziy badiiy kelasi zamon.*

Tarixiy romanlar zamoni va janriy xususiyatlaridan kelib chiquvchi tarixiy kelasi zamonning muallif zamoni “tabiatan” hozirgi zamon bo‘lgani bois epik tarixiy zamon badiiy hozirgi-kelasi zamon maqomi kasb etadi. Kelasi zamon fe‘llarining grammatik hamda semantik xususiyatlari, ularning o‘zaro chambarchas bog‘liqligi (qaysi zamon ekanligini ko‘pincha kontekst hal qiladi), hozirgi zamonning mazmunan ma‘lum darajada kelasi zamon chegarasiga kirib borishidek ilmiy da‘voni nazariy asoslaydi. Bu – tarixiy romanlar badiiy zamon poetikasi o‘ziga xosligining bir ifodasi, xolos. Asosiy janriy-epik xoslik mavzu hamda bosh qahramonlarning tarixiy real zamonlarning real shaxslari ekanligi, ularning, nainki, hozirgi zamonlari, ayni paytda, kelasi zamonlari ham aslida o‘tgan zamonlari ichida boshlangani (1) (Bobur, Humoyun va Akbar, Ulug‘bek, Ali Qushchi, ibn Sino, Beruniy o‘tmishlari bilan bog‘liq retrospeksiyalar), tarixiy voqea-hodisalarni o‘tgan zamon doirasidagi kelasi zamon, deb ilmiy belgilash imkonini beradi. “Yulduzli tunlar”, “Avlodlar dovoni”, “Ulug‘bek xazinasi” va “Ko‘hna dunyo” romanlarining tarixiy-epik zamon poetikalarida zamonlarning ushbu badiiyati turli mazmuniy mundarijalarda teran ijodiy-estetik ifodasini topgan. Tarixiy romanlar badiiy kelasi zamoni qisman yechim zamoniga, ko‘proq esa muallif zamoni – Xotima zamoniga to‘g‘ri keladi. Yechim zamoni bilan bog‘liq epik kelasi zamon badiiy poetikasi tarkiban xilma-xil, mazmunan murakkab. Har bir roman badiiy kelasi zamonining o‘ziga xos epik individualligi ularning barchasi badiiy-kelasi zamon poetikasiga xos mushtarak tipologiyani inkor qilmaydi. Poetikadagi mushtarak tipologiyani umumqiyosiy mundarijada mazmunan *beshtilga bo‘lish* mumkin: *mavhum badiiy kelasi zamon; ruhiy badiiy kelasi zamon; qorishiq zamonli badiiy kelasi zamon; aniq kelajakli yoki*

kelajakdan tashqari tarixiy-epik kelasi zamon; ramziy badiiy kelasi zamon. Bo‘linish shartli, albatta. Romanlarning tarixiy kelasi zamonlari tarkiban asli turli zamonlarning bir paytdagi murakkab dialektikasidan iborat u yoxud bu badiiy zamonlarning badiiy yanada murakkabroq tizimlaridir. Romanlar zamonlarining epik yaxlitligi tarkiban badiiy zamonlarning ana shu tizimlari qorishmasidan iborat. Tarkiblarni avval shartli muayyan mazmunlarda. so‘ng esa zamonlarning turli qorishiqli mundarijalarida ilmiy muxtasarlikda alohida-alohida ko‘rib chiqamiz:

1. *Mavhum badiiy kelasi zamon.* “Avlodlar dovoni” romanining badiiy kelasi zamonidagi yechim zamonini poetikasida prospeksiya shaklida mavhumlashgan. Mavhumli badiiy kelasi zamonning murakkab ruhiy holatidagi tasvirini “Avlodlar dovoni” romanining “Akbar” qismi yechim zamonida (yopiq yechimning mavhum zamonida), (uning grammatik ifodasida ham) ko‘rish mumkin. Tangrim Akbarga uch o‘g‘il nasib etdi. Lekin birortasi valiahd maqomida shoh otani qoniqtirmaydi: “Uch o‘g‘il o‘stirib, birortasidan ko‘ngli to‘lmasa...” (5, 599-b.) Salimning “o‘z yoqtirgan muhiti va ixlosmandlari ta’siridan chiqib ketolmasligiga ishongan ota “Oqibati ne bo‘larkin?” (5, 599-b.), deb o‘ylagani o‘ylagan. Yoki Dakandagi kichik o‘g‘il Doniyol ichishni tashlab, aqlini yig‘ib olarmikan? O‘shanda Akbar Doniyolni valiahd tayinlashi mumkin. Salim norozi bo‘lsa, Doniyolning yonida tadbirkor Abdurahmon xoni-xonon bor. Man Sinx ularga yordam berishi aniq. Ko‘plashib Salimni tinchitishar” (5, 599-600-b.).

Akbar zamonini mohiyatan arosat, taassuf, taajjub holatlarining murakkab zamonlari nadomatli qarama-qarshiliklar to‘qnashgan o‘ta alamli zadalarning hozirgi zamondagi keskin drammatizmi kelasi zamon mavhumligi shafqatsizligini zamon va makonda yanada mavhum--lashtiradi: taxt ertaga kimning qo‘lida qoladi? Roman kelasi zamonning ana shu achchiq mavhumlik nasibasi, zamonini bilan ochiq yechim topadi (yechimning ochiqligi romanning Xotima zamonida kelasi zamonda berilgan xotira – ma’lumot, xotira –axborotlardan iborat badiiy publi-sistik zamondagina muallifning hozirgi zamonini vaqtida umumlashma namoyon bo‘ladi. Demak, romanning “Akbar” qismi mavhumli badiiy kelasi zamonda ochiq yechimda tugaydi: “Ajab dunyo!”, – deb so‘nggi uyidan uning o‘zi (Akbar) taajjub qildi: shunday ulkan davlatni boshqargan odam tilab olgan o‘g‘illarimni yo‘limga sololmasam-a!.. Bu ne achchiq nasiba?”(5, 600-b.).

Asar yechim zamonining badiiy-publisistik kelasi zamondagi yopiqligi esa “Xotima” zamonidan iborat muallif zamonida beriladi (5, 601-605-b.).

Tarixiy romanlar epik zamonini poetikasida kelasi zamon, ta’kidlaganimizdek, odatda, personajlarning ruhiy-badiiy o‘tgan zamonini uyg‘unligi mushtarakligida

kechadi. Ular bir-birini mazmunan va shaklan mantiqan to‘ldirganicha, roman zamonining badiiy kelasi zamon shaklida epik yaxlitlashadi.

2. *Ruhiy-badiiy kelasi zamon.* Ushbu shakl mohiyatan aslida tahlildagi barcha tarixiy romanlar epik zamon poetikasiga xos badiiy usul. Lekin “Ulug‘bek xazinası” va “Ko‘hna dunyo” romanlari yechim zamonlarida ruhiy-badiiy kelasi zamon yetakchi tipga aylanadi. Buning asosiy sabablaridan biri – janriy xususiyatlari jihatdan ularning ko‘proq psixologik romanlar ekanligida. “Ko‘hna dunyo” epik yechimi yopiq zamonining ruhiy-badiiy kelasi zamonı ustoz va shogirdning izhori dili, bir-birlariga daholarcha munosib qarash va kechinmalari, ruhiy qondosh-u jondoshlik ezguliklari abadiyati ifodasi bo‘lib, zamonı dramatik ma‘yus, rozilik, minnatdorchilik va iftixor barobarida judolik, abadiy hijron tuyg‘ularidan “yo‘g‘rilgan”: “ikki do‘st, ikki alloma bu onlarning qaytib kelmasligini, endilikda diydor ko‘rishish nasib qilmasligini butun vujudlari bilan his etishar, shu boısdan ham o‘zlarini qanchalik vazmin tutishmasin, judolik tuyg‘ulari og‘ushidan chiqolmas edi. Beruniy birinchi bo‘lib, Abu Alini quchib bag‘riga bosdi.

– *Alvido, azizim. Diydor ko‘rishmoq nasib etmasa, rozi bo‘l, jigarim!..*

ibn Sino ustozini quchib, beixtiyor ko‘ziga yosh oldi.

– *Kaminadan g‘am yemang ustoz! So‘zimga ıshoning...*

Beruniy ma‘yus kulimsirab, ibn Sinoni so‘ng bor quchoqladi. Ular go‘yo bu **daqiqalarning betakror ulug‘ligini his etganday**, uzoq jim qolishdi, so‘ng.... quchoqlarini yozdilar.

– *Omon bo‘ling, ustod. Bu yaxshiligingizni toabad unutmayman!*

Beruniy beixtiyor ko‘ziga yosh oldi.

– *Oq yo‘l! Boshing toshdan bo‘lg‘ay, azizim!(4, 329-330-b.)*

Ikki dahoning (demak, romanning) yopiq yechim zamonlari hozirgi-kelasi zamonda grammatik ifodasini topgan ana shu ruhiy-badiiy kelasi zamon abadiyatiga ko‘chdi. Manguga ko‘chdi!.. Mangulik o‘laroq esa, romanning badiiy zamonı ham g‘oyaviy-estetik jihatdan epik yaxlitlashadi...

3. *Qorishiq zamonli badiiy kelasi zamon.* Epik badiiy zamon tizimi adabiy-estetik qanchalik yaxlit bo‘lsa, uning tarkibi shunchalik boy, rang-barang, demak, qorishiq bo‘ladi. Adibning badiiy zamon mahorati tarixiy roman epik zamonining serqatlam, murakkab “manzaralari” bilan o‘lchanadi. Ya‘ni roman epik zamonı tarkiban serqatlam turli zamonlar qorishmasidan iborat. Ilmiy da‘vomizning ijodiy namunasini, jumladan, “Ulug‘bek xazinası” roman zamonı misolida Odil Yoqubovning uslubiy mahoratiga xos tahliliy murakkab qorishma sintezida ko‘ramiz. Tahliliy-sintetik qorishma uslubini yozuvchi, odatda, qahramon hayoti yoki

qismatining o‘ta og‘ir damlari-zamonlari adabiy tahlilida ijodiy teran qo‘llaydi. “Ulug‘bek xazinasi” romanining Ulug‘bek bilan o‘g‘li Abdullatif o‘rtasidagi shafqatsiz musohaba, tragik qalbning foje zamonlarida noqobil o‘g‘il tomonidan xo‘rlangan Mirzo Ulug‘bekning mudhish shubhalari, mislsiz iztirob “sahna”lari aynan shunday qorishma zamonlarining yanada murakkab chatishma dialektikasini ko‘ramiz (3, 100-106-b.). Badiiy zamonning bunday qorishiq dramasiga va uning zamonlar nuqtai nazaridan nihoyatda murakkab uslubini romanning ochiq yechim zamonlari – Ali Qushchining Vatanni tark etish onlari ruhiy iztiroblari zamonida, badiiy hozirgi zamon va badiiy kelasi zamon favqulodda chatishib, Ali Qushchining hijronli xotiralari, hasratli o‘y-fikrlari va nadomatlari daqiqalari “to‘rlari”ga “o‘ralib ketgan” zamonlarning kelasi zamon ishorasida o‘zaro qorishib ketgan murakkab dramatik-ruhiy “manzaralari” yaxlitligiga yana bir bor guvoh bo‘lamiz (4, 329-334-b.). Ali Qushchining *“musofirlikda boshimga ne kulfatlar solsang ham rozimen, ammo xokimni bu tuproqdan bebahra qilmagaysan!..”* (4, 332-b.), deya Parvardigori olamga tavallo qilganicha, umidlar ilinjida *“... Movarounnahr elini chulg‘agan bu zulmat qanchalik cho‘zilmasin, bir kun emas, bir kun bu qora bulutlar tarqab, oftob chiqajakdur... Noumid shayton, faqir ham Movarounnahrni chulg‘agan bu zulmat tarqalgan kunda qaytamen, degan umiddamen...”* (4, 333-b.), Samarqandni tark etish zamonlari har uch zamonning zamon-makon qorishmasi chatishgan yalpi ruhiy drama zamonlari bo‘lib, kelasi zamonlarning qolgan ikkisi zanjiri uzra bosh “halqa”ga aylanganicha, romanning yaxlit epik zamoniga badiiy xotima yasadi: *“... Rahmatli ustod (Mirzo Ulug‘bek) bu nodir xazinani (“Ajdar G‘or”da yashiringan kutubxonani) saqlamoqni faqirga yuklagan edi (o‘tgan zamon). Endi kamina buni ikkovingga (shogirdlar – Miram Chalabiy va Mansur Koshiyga), ikkovingni Ollohga topshiramen (hozirgi zamon)... Abadulabad eslaringda bo‘lg‘ay: Movarounnahr donishlarining aql durdonalari yig‘ilgan bu noyob xazina bo‘lg‘usi avlodlarga, uzoq zurriyotlarimizga xizmat qilur... Bu xazinani ko‘z qorachiqqlaringizday saqlasangiz, ishongan shogirdlaringizga topshiringiz, ular ham o‘z shogirdlariga topshirgay. Va shu yo‘sin zurriyotlardan zurriyotlarga o‘tib, elimiz osmoniga oftob chiqqanda yashaydurgan baxtli avlodlarimizga yetib borg‘ay...”* (4, 333-334-b.)

Uch zamonning bunday qorishib-chatishib ketgani, o‘tgan hamda hozirgi zamonlarning mantiqan kelasi zamonga umidbaxsh *“payvand-langani”* va bu *“payvand”* kelasi zamonning oshkora ishorasi bilan ramziylashgani (“Ali Qushchi qo‘lini so‘ng bor silkitib, shogirdlari bilan vidolashdi-da, ko‘z yoshlarini artib, otining boshini dovonga burdi... qorishgan badiiy zamonlarning kelasi zamonda mundari-jalashgan mantiqiy kvintessensiyasi bo‘ldi (4, 334-b.).

4. *Aniq kelajakli yoki kelajakdan tashqari tarixiy-epik kelasi zamon.* Tarixiy romanlarda o‘tgan zamon vaqt jihatidan qanchalik aniq bo‘lsa, aniq yoki ramziy xarakterdagi badiiy-epik kelasi zamonlari ham tarixan shunchalik real va aniq bo‘ladi. Faqat ularning ijodiy-badiiy talqini, tabiiyki, bir-biridan adabiy farq qiladi. Ya’ni butun roman zamoni o‘tgan zamondan iborat bo‘lsa, uning kelasi zamoni, odatda aniq kelajakli yoki kelajakdan tashqari tarixiy-epik mundarijada, asosan, asarning **Xotima vaqti** bilan bog‘liq muallif zamoni bo‘ladi. Har holda, “Yulduzli tunlar” (4, 463-b.), “Avlodlar dovoni” (5, 601-605-b.), “Ko‘hna dunyo” (4, 30-332-b.) asarlari epik zamonlari tizimi poetikasida ana shunday. Tahlildagi romanlarda aniq kelajakli yoki kelajakdan tashqari epik kelasi zamon ikki mundarijada – *tarixiy real aniqlik* yoxud *ramziy-falsafiy umumlashma* – epik namoyon. Har ikkala tipga xos ijodiy-badiiy mushtaraklik – Xotima zamonlari qanday mundarijada bo‘lmasin, ular muallif zamoni maqomida bevosita romanlar ochiq yechim zamonlaridan iborat aniq kelajakli yoxud tashqari tarixiy-epik kelasi zamonlarining mantiqiy-uzviy bardavomi sifatida, aniqrog‘i, tarixiy obrazlarning romanlar zamoni doiralaridan tashqari abadiyatlari ta’kidlaridan, maxsus ilmiy-publisistik qaydlaridan iborat o‘tgan zamonlardan muallifning hozirgi zamoni orqali o‘lchamsiz kelasi zamonlar qobiqlariga ham sig‘mas manguliklari e’tiroflarida. Mualliflar ijodiy-estetik niyatlaridan kelib chiqqan uslubiy-ijodiy bunday mushtaraklik epik syujet zamonining tarixiy kelasi zamondagi yechimi hamisha ochiqligicha qolgani va bu haqiqat xotirasi hech qachon tugallanmasligi ramzi edi. Tarixiy real aniqlik tarkiban aksar Xotima zamonlariga xos uslubiy mushtaraklik qisqa yoki ixcham mundarijadagi tarixiy aniq kelajakli zamonning shu darajada aniq sanalardan iborat tarixiy ma’lumot – axborotlarning – maxsus qaydlaridir. Bu aslida roman zamoni tashqaridagi muallif zamoni bo‘lib, u o‘z mohiyatida qahramon vaqtining zamon bilmas cheksiz-chegarasizligi timsolidir. Uslubiy bunday yechimning teran badiiy, ko‘proq publisistik ijodiy ifodasini “Yulduzli tunlar” hamda “Avlodlar dovoni” romanlarining aniq kelajakli yoki kelajakdan tashqari tarixiy-epik kelasi zamonlari poetikasida ko‘rish mumkin. Ularda aniq kelajakli tarixiy-epik kelasi zamondan iborat *Xotima zamonlari* matn ko‘lami nuqtai nazaridan farq qilsa-da, mazmun ko‘lami, demak, qamrovlardan tashqari qamrovsiz cheksiz kelasi zamoni bilan mohiyatan mushtarakdir.

“Yulduzli tunlar”ning qisqa Xotima zamoni birgina Boburning emas, balki Mavlono Fazliddin va Tohir singari vatandoshlarining Bobur vafotidan keyingi hayotlari – zamonlari haqidagi tarixiy ma’lumotlar barobarida, buyuk shoh “tuzgan ulkan davlat o‘z qudrati va madaniy yodgorliklari bilan jahonga tanilib, *uch asr umr*”

ko‘rib, tarixda – kelasi zamonlarda qolgani, “avlodlari bugungi kunga (muallifning zamoniga, hozirgi-kelasi zamonga) yetib kelolmagani – eng oxirgi boburiylar o‘tgan asrlarda (XIX asrda) ingliz mustamlakachilari davrida mahv etilgani ... faqat Bobur o‘z qo‘li bilan yozgan eng yaxshi asarlar haligacha (demak, abadiyatga) tirik bir qalbning haroratiga to‘lib, odamlarga hamon ma‘naviy oziq va zavq berayotganligi, “bir umri qorong‘u osmonda olovli iz qoldirib o‘chgan yulduzdek tez” so‘ngani, “lekin o‘lmas asarlari sahifasida *salkam besh asrdan* beri davom etayotgan ikkinchi umri – bu yulduzning tundan tongga qarab uchganini va o‘z nurini *kelajakka yo‘naltirganini* aytib” turgani, “qalb o‘tiga yo‘g‘irib yaratgan madaniy meros *bugungi sernur avlodlarni* bahramand qilgani sari uning ana shu **ikkinchi umri** ham qorong‘u tunlardan (o‘tmishdan) keyingi yorug‘ kunlarda astoydil obod bo‘layotgani” (4, 463-b.) haqiqatidan iborat muallifning yupanch, ayni paytda, Bobur abadiyatidan faxr-iftixor zamonidir. Xuddi shunday publisistik uslub “Avlodlar dovoni”da mazmunan mufassalroq, tarixiy aniq realliklardan iborat. Xotima ilmiy-publisistik mundarijasi zamonida nisbatan kengroq namoyon. Ma‘lumki, roman shoh Akbarning umri so‘nggidagi o‘tgan, hozirgi va kelasi mavhumli zamonlar chatishib-qorishib ketgan murakkab dramaturgiyasi – “achchiq nasiba”si – “ulkan davlatni boshqargan odam (shoh Akbar) tilab olgan o‘g‘illarimni yo‘limga sololmasam-a!..”(5, 600-b.) – bilan ochiq yechim topadi. Olti betli Xotimadagina (5, 601-605-b.) Akbarning vafot oldi shafqatsiz ruhiy kechinmalarining shu darajada shafqatsiz zamonlari – nasihat-vasiyatlari, vafotidan so‘ng o‘g‘il va nabiralari, ulardan otasining tirikligida taxtga o‘tirgan Salim (Jahongir)ning, uning o‘g‘illarining, jumladan, Shohjahon nomi bilan taxtga chiqqan Xurramning tarixlari axborot tarzida eslatiladi. Lekin roman zamoni tizimi aniq kelajakli (aslida kelajakdan tashqari) tarixiy-epik kelasi zamonning ma‘lumot tarzidagi ushbu qaydlari emas, balki “Akbarning turli ellar va e‘tiqodlarni ahil qilishga qaratilgan g‘oyalarini... tarix sahifalaridan (*demak, kelajakdan*) o‘chirib yuborishmoqchi bo‘lishgani, “lekin oradan o‘tgan to‘rt asr mobaynida Akbarning ma‘naviy izlanishlari va umuminsoniy g‘oyalari” unitilmagani, “me‘morlik obidalari Akbarning *ijodkor ruhi hamon tirik* ekanini va *hali ham* odamlarga badiiy zavq berishi” “Bobur va Akbar mansub... sulolaning *asrdan asrga va mamlakatdan mamlakatga* o‘tib, *besh asrdan ortiq umr ko‘rgani* Temuriylar sulolasiga xos “irsiy daho insoniyat tarixida kam uchray-digan bir qudrat va *umrboqiylik* bilan hayratomuz mo‘jizalar yaratganini isbot etadi” (5, 603-605) tasdig‘ida kelasi zamonlar manguligiga aylanib ketadi.

Xotima zamonini *ikki tarixiy haqiqat* abadiyati bilan yakunlaydi. *Biri* – “Bobur va uning avlodlarining “Ulug‘ mo‘g‘ullar”, deb noto‘g‘ri atashdek odat tarzi,

ikkinchisi – “sun’iy ravishda begona qilingan bu ulug‘ tarixiy siymolarning (Bobur va avlodlarining) ota yurti – bizning bugungi Vatanimiz (O‘zbekiston) ekanini jahon miqyosida tan oladigan kunlar keladi”(5, 605-b.) ishonchi. Ushbu ikki tarixiy haqiqat kelajakdan tashqari bo‘lmish aniq kelajakli abadiyatlardir.

Tarixiy real aniqlikning kelasi zamon ikkinchi uslubi xili ilmiy- publisistik tadqiq mundarijasi bilan ajralib turadi. Bunday xotima zamonlari aniq tarixiy-ilmiy manbalariga ega. Jumladan, “Ko‘hna dunyo” romanining Xotima zamon – tarixiy aniq o‘tgan zamon (*“Bugun to‘rt yuz sakson birinchi yil hijriy muharram oyining o‘n sakkizinchi kuni...”* (4, 330-b.) mashhur muarrix Abu Ubayd al-Juzjoniyning xotiralaridan iborat. Ularda yozuvchining ishtiroki mutlaqo yo‘q. Ko‘chirma va uning muallif al-Juzjoniyni sharhi bilan tugallangan qismi xotimasi aniq kelajakli emas. Balki kelajakdan tashqari tarixiy-epik kelasi zamon tagma’noli, ishorada badiiy ramziylashgan (4, 332-b.).

Tarixiy romanlar badiiy zamon shakllari tizimida badiiy kelasi zamon ijodiy-estetik murakkab mundarijada ham tarkiban, ham shaklan va eng muhimi – mazmunan ajralib turadi. Badiiy kelasi zamonning tarixiy romanlar zamon silsilasida tarkiban va mazmunan o‘ziga xosligi, avvalo, asarlarning janriy-epik xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq. Zamonning keng qamrovidagi badiiy kelasi zamon shaklining tarixiy zamon nuqtai nazaridan aniqligi (tarixiy kelasi zamon), mazmunan uning mavhumligi, ramziy-falsafiy ishoralardagi umumbashorat mundarijasi tarkibining har uch zamonning murakkab qorishmasidan iborat zamondan tashqari cheksizlikka “yo‘nalgani”, badiiy zamonlarning aynan kelasi zamonga, undan abadiyatga singib ketishdek adabiy-estetik “qonuniyati” tarixiy romanlar zamonining yaxlit poetikasiga xos epik zamon shaklidir.

Romanlarning badiiy kelasi zamonlari aslida har xil zamonlarning murakkab chatishmalaridan “yo‘g‘rilgan” epik zamonning sarhadsiz abadiyatga “yuz tutgan” yaxlit umumlashma mohiyatidir. Tarixiy romanlar umumzamon tizimida badiiy kelasi zamonning adabiy-estetik “mavqeyi” ilmiy-nazariy aynan ana shu ijodiy maqom bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жўраева Ж. Келаси зомон феъллари. Сулаймонов А., Жўраева Ж. Феъл зомонлари. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1962. – Б 113-167.
2. Yoqubov O. Ko‘hna dunyo. Uch jildlik. Birinchi jild. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1986. – 512 b.

3. Yoqubov O. Ulug‘bek xazinasi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1994. – 336 b.
4. Qodirov P. Yulduzli tunlar. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 1988. – 464 b.
5. Qodirov P. Humoyun va Akbar (Avlodlar dovoni). Tarixiy roman. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1997. – 608 b.
6. Тураева Б. Б. Категория художественного времени в литературе (на примере узбекских исторических романов) // Молодой ученый. – 2014. – №. 3. – С. 853-856.
7. Turaeva B. A Theory of literary time // Young Scientist USA. – 2014. – С. 110-115.